

O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi

**Farg'ona viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti**

Til va adabiyot ta'limi kafedrasini

She'riy san'atlar

**(Ona tili va adabiyot fanlaridan bilimlar bellashuvida
o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlar
bo'yicha tavsiyalar)**



Farg'ona - 2015

Mazkur tavsiya ona tili va adabiyot fanlaridan bilimlar bellashuvida o`quvchilar bilimida aniqlangan bo`shliqlarni to`ldirish hamda ona tili va adabiyot fanlarini o`qitish samaradorligini oshirish maqsadida yaratilgan bo`lib, undan o`zbek tili va adabiyot o`qituvchilari va umumiy o`rta ta`lim o`quvchilari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

U.Nosirova – Farg’ona VXTXQTMOI Til va adabiyot ta’limi kafedrasida katta o’qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Hakimov – FarDU, filologiya fanlari doktori, professor

O.Mamaziyaev – Farg’ona VXTXQTMOI, Til va adabiyot ta’limi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

FVXTXQTMOI Til va adabiyot ta’limi kafedrasining 20__ yil _____ oyidagi _____sonli qarori bilan tasdiqlangan.

She'riy san'atlar

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan badiiy ifodani mazmunan quyushtirish, uni his-hayajonlarga yo`g`irish uchun so`z salohiyatiga tayanadi. Har bir so`z shakl-shamoyili, rang-bo`yog`i, o`z salmog`i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so`zlovchidan so`z sohibiga, undan esa so`z san'atkoriga ko'tarilishi uchun "so`z sezgisi", "so`z jozibasini", "so`z sehri" kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan uning ihtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardir.

She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, "ilmi bade" nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Ushbu tavsiyanomada asar jozibasini, jarangdorligini va ta'sirchanligini oshiradigan bir necha badiiylik ilmining asoslari haqida nazariy ma'lumotlar beriladi.

Alligoriya (lotincha *allegoria* – kinoya, qochiriq, kesatish) – biror mavhum tushunchani konkret narsa, hodisa orqali ifodalagan majoziy, ya`ni o`z ma`nosidan boshqa ma`noga ko`chirilgan so`z va iboralarning bir turi.

Masalan: "Tangriqulxo`ja ilonning yog`ini egan odam edi-da"(*A.Qahhor*). Bu parchadagi "*ilonning yog`ini egan*" gapi Tangriqulxo`janing hiylagarligiga kinoyadir.

Odatda , masal va ertaklarda tulki aldoqchi, bo`ri ochko`z, chayon zararli, ilon makkor kishilarga nisbatan kinoya qilinadi.

A. Navoiyning " Lison-ut-tayr", Gulxaniyning "Zarbulmasal" nomli asarlari shular jumlasidandir.

Obrazlarning kinoyaviy xarakterda bo`lishi, asosan, masal janriga xos xususiyatdir.

Alliteratsiya (lotincha *lit(t)era* – harf so`zidan) – badiiy nutqni yanada ifodaliroq qilish uchun ko`pincha she`rlarda, ba`zan prozada bir xil, ohangdosh tovushlarni takrorlash.

Masalan:

Har *tong*da

bir *dong* deb

bong ursa

dovullar...

(*G`G`ulom "Turksib yo`llarida".*)

Anafora (grekcha *anaphora* – yuqoriga chiqarish so`zidan) – silitistik figuralardan biri bo`lib, misralarning boshida yoki prozaik badiiy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so`z yoki iboralarning takrorlanib kelishi.

Misollar:

1. Bir xil jaranglovchi tovushlarning takrorlanib kelishi:

Ko`m-ko`k

Ko`m-ko`k

Ko`m-ko`k...

Ko`klam quyoshidan

Ko`kargan qirlar
Po`lat yag`rinlarni
Ko`targan yerlar
ko`m-ko`k. (Hasan Po`lat.)

2. Bir xil so`zlarning ohangdosh bo`lib takrorlanishi:

Qaysi bir ozorin aytay jonima ag`yorning,
Qaysi bir og`ritganin ko`nglimni dey dildorning. (Bobur.)

3. Sintaktik jihatdan bir necha gapning bir xilda bog`lanib kelishi:

Menikidir kelajak, chaman,
Menikidir maktab, ijod, fan.
Menikidir sog` aql, badan,
Ko`nglim to`lin oy kabi ravshan. (Hasan Po`lat.)

Antiteza (grekcha *antithesis* – qarama-qarshi qo`yish so`zidan) – bir-biriga zid tushuncha, fikr va hissiyotlarning yaqqol ifodalashda hamda ularga qiyosiy xarakteristika berishda qo`llaniladigan adabiy usul.

Menga *nomehribon* yor o`zgalarga *mehribon* erish,
Mening jonim olib, ag`yorga oromijon erish. (Navoiy.)

Antitezaning Sharq klassik adabiyotida qo`llangan turlaridan biri *tazod* deb atalgan.

Apostrofa (grekcha *apokryphos* – yashirin, qalbaki so`zidan) – jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa va hodisadek yohud hozir bo`lmagan kishiga shu yerda hozir turgandek murojaat etishdan iborat poetik nutq usullaridan biri. Masalan:

Aleksandr Sergeevich,
ruxsat bering,
Tanishaylik -
Mayakovskiy.
Qo`lni bering! (V. Mayakovskiy. "To`yona"
she`ridan.)

Assonans (lotincha *assonare* – ohangdoshlik so`zidan) – gapda misra va bandda bir xil unli tovushlarning qaytarilishi:

Ichkarida o`zga hol edi,
Zaynab uchun o`zga fol edi. (H. Olimjon.)

Faqat unlilar hamohang bo`lib kelgan to`liq bo`lmagan qofiya ham assonans deb ataladi:

Seni unitolmas yuragim aslo!
Ey, O`rta Osiyo, O`rta Osiyo!

Gpotesk (fransuzcha *grotesque* – kulgili, g`ayri tabiiy so`zidan) – san`at va adabiyotda kishilarni va ular hayotidagi manzaralarni ataylab haddan tashqari kuchaytirib yoki kichraytirib, kulgili tarzda buzib ko`rsatish, hayotdagi haqiqiy

holatni fantaziya bilan qo`shib, bahimoli ravishda bo`rttirib, kulgili qilib tasvirlashdan iborat usul. A. Qahhorning “Maktub”, G.G`ulomning “Duoi salom mushtoqona”, S.Ahmadning “Maktub xususida” nomli fel’etonlari groteskka misol bo`ladi.

Jonlantirish – badiiy tasvir usullaridan biri bo`lib, insonga xos qobiliyat va xususiyatlarni: so`zlash, his qilish, fikrlash va hokazolarni hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga ko`chirib tasvirlashdan iboratdir.

Klassik yozuvchilarimiz jonlantirishni tashxis va intoq deb ataganlar. Jonsiz narsani shaxs (inson) holiga keltirish *tashxis*, uni nutq egasi qilib ko`rsatish *intoq* deb atalgan.

...Fig`on aylar rubobi yod qilur,
Urar ko`osigayu faryod qilur.
Uzatib bo`ynini bechora tanbur,
Mening holimga yig`lar, nolishin ko`r... (*Majlisiy, “Qissai Sayfulmulk”.*)

Yaprog`iga berkinib olib,
- Suqing kirar ko`p nazar solma!
Qizil yuzlarimdan bir o`pkanning
Armoni yo`q, - der yoqut olma. (*Uyg`un “Kuz qo`shiqlari”.*)

Idioma (grekcha *idioma*– o`ziga xos ibora so`zidan) – faqat biror tilga xos bo`lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo`lmaydigan ifoda yoki ibora. Masalan o`zbek tilidagi “*qandingni ur*”, “*dimog`i chog`*” kabi ibiralar shular jumlasidandir.

Badiiy asarlarda asar qahramonlarining nutqida idiomalardan foydalanish asarning milliy xarakterini ravshan ko`rsatishga imkon beradi:

“Saida,- ...ayol kishi rahbarlik qilsa, *kalavangizni uchini yo`qotib qo`yasiz*, - dedi”;

“*Sho`rimizga sho`rva to`kilgani rostga o`xshaydi-ku*” (A.Qahhorning “*Sinchalak*” qissasidan)

Inversiya (lotincha *inversio* – o`rnini almashtirish so`zidan) she`riy nutqda so`zlarning grammatik qoidaga muvofiq bo`lgan odatdagi o`rnining almashtirib berilishi: eganing kesimdan so`ng kelishi, aniqlovchining aniqlanmishdan so`ng ishlstilishi kabi. Inversiya she`rda tasodifiy hodisa emas, balki shoirning she`r g`oyasini birinchi planga qo`yish niyati bilan bog`langan qonuniy hodisadir. Shoir ma`lum so`zlarni ta`kidlash va ularning ta`sirchanligini oshirish niyatida nutqda so`zlarning grammatik qoidaga muvofiq bo`lgan o`rnini ataylab almashtirib qo`llaydi va poetik sintaksisni yuzaga keltiradi.

Ko`z tutadi dalada bahor,
Buloqlar qaynasin qo`yningda,
Kutmoqdadir el turib nahor,
Qarzi bordir sening bo`yningda. (*H. Olimjon.*)

Ironiya (grekcha *eironeia* – zimdan kulish, kesatish soʻzidan) – zohiran jiddiy aslida esa masxaraomuz, yaʼni zimdan kulish bilan, kesatib aytilgan piching soʻz va iboralar. Ironiya hajvning yoki hazil mutoyiba – yumorning bir koʻrinishidir. Ayni zaminda, ironiya oʻz maʼnosidan koʻchirilgan soʻzlarning ham bir turi boʻlib, bunda soʻz va iboralar teskari maʼnoda, yaʼni sirtqi mohiyatiga nisbatan qarama-qarshi maʼnoda keladi. Yozuvchi personaj yo uning biror harakati toʻgʻrisida bir xil gapirib boshqacha hukm chiqaradi. Masalan:

“Azamat” kolxozining raisi hovuz boʻyida choʻgʻdek yongan gilam ustida oppoq yostiqlarga yonboshlab... kayf qilmoqda ekan... Sayramov xoʻmrayib dedi:

- Planlarni bajaryapsizlar, erta-krch bazm, kayf-safolaring yarashadi”.

(Oybek, “Oltin vodiyan shabadalar”.)

Ifrot yoki **ifroq** – oʻta mubolagʻa (q.) qoʻllash sanʼati. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida Farhod Shirin tutgan may qadahni shunday berilib ichdiki, hatto qadahning naqshini yutib yubordi, deyiladi:

Ichib, jomi labolab tytti ul dam,

Ki: ”Noʻsh etgil mening ishqimda sen ham”.

Olib sipqardi ul ham bexudona,

Ki sogʻar naqshidin ketti nishona.

Litota (grekcha *litotes* – soddalik soʻzidan) – majoziy iboralardan biri boʻlib, **mubolagʻa** va uning oʻta formasi **ifrotga** qarama-qarshi tarzda biror narsa yoki hodisani atayin kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash.

Yozuvchi oʻz estetik idealiga uygʻun narsa yoki hodisaning ahamiyatini taʼkidlab, boʻrttirib va tasdiqlab koʻrsatish maqsadida boshqa narsani uning ulugʻvorligi va qudrati qarshisida kichraytirib chizadi. Masalan, Navoiy Farhod teshasining oʻtkirligini taʼkidlash va boʻrttirish niyatida togʻ-toshlarni kichraytirib, yumshatib koʻrsatadi:

Qoʻlida tasha, yoʻq teshakim, gurz,

Boʻlib tufroq aning zarbidan alburz.

Aning teshasi ollida qaro togʻ,

Aningdek kim pichoq ollida sarig yogʻ.

Yoki shoir Uygʻun “Tinchlik kuylari” sheʼrida shunday misralarni yaratadi:

Bu soʻzning maʼnosi shu qadar teran,

Dengizlar bir hoʻplam uning qoshida.

.....

Bu soʻzning mazmuni shu qadar issiq,

Quyosh bir kichik sham uning yonida.

Majoz – koʻchimlarning bir turi boʻlib, ikki tushuncha oʻrtasidagi yaqinlikka asoslangan koʻchma ifoda. Masalan, yozuvchining nomi uning asrini bildiradi: *Navoiyni sevib oʻqiymiz* deganda shoirning nomidan uning asarlari anglashiladi.

Shoir Hamza “Yash, Shoʻro” sheʼrida:

Bitsin endi eski turmush,

Ul kulohu, jandalar, -

Der ekan, *kuloh* – xurofotchi mulla-eshonlarni, *jandalar* esa darvish-qalandalarni xayolga keltiradi.

Ba'zan joy oti unda turadigan kishilar ma'nosida keladi: "Majlisga butun qishlaq keldi" (A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari")

Metafora (grekcha *metaphora* – ko'chim, istiora so'zidan) – asosiy poetik ko'chim (trop)lardan biri. Ko'chim ikki hil bo'ladi: o'xshashli ko'chim – *metafora*, o'xshashsiz ko'chim - *metonimiya*.

Metafora ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan o'xshashlik ko'chim bo'lsa, metonimiya ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chimdir. Metafora qo'llash – so'zni o'z ma'nosidan ko'chirib, o'z xususiyatlari va ayrim tomonlaribilan shu so'zda ifodalangan narsaga o'xshagan biror predmet yoki hodisani ta'riflash demakdir. Lemak istiorada so'zning o'z ma'nosi bilan ko'chim - yangi ma'nosi o'rtasida o'xshashlik bo'lishi shart/

Ma'lumki to'liq o'xshatishda to'rt element bo'ladi:

- 1) o'xshagan narsa;
- 2) o'xshatilgan narsa;
- 3) o'xshash sifat;
- 4) o'xshatish qo'shimchasi.

Istiora qisqa o'xshatish bo'lgani uchun unda to'liq o'xshatishga oid to'rt element mavjud bo'lmaydi. Chunonchi, ochiq istiorada o'xshagan narsa ornida o'xshatilgan narsa aytiladi.

- Kechir, arslonim, hozir uyingga bormoqchi edim, dedi Xadicha xola quvonib (Oybek, "Oltin vodiyan shabadalar"). Xadicha xolaning bu gapida Ulug Vatan urushida g'alaba bilan qaytgan O'ktam kuch-qudratda arslonga o'xshatilib, gapda shu o'xshatilgan narsaning o'zigina qoldirilgan.

Yopiq istiorada esa o'xshatilgan narsa o'rnida o'xshagan narsa – kishi yoki hodisa qoldiriladi va o'xshatilgan narsaning biror sifati, xarakterli xususiyati o'xshagan narsaga taqiladi, shundan uning nimaga o'xshatilayotgani kitobxonga ma'lum bo'ladi. Masalan:

Qolgan so'zlar tutqizmadi o'z baridan. (G'.G'ulom)

Jilva qilar chamanlar, qad ko'tarar shaharlar. (Uyg'un)

Ba'zan istiora kishi, narsa va hodisani tasvirlab, uning sifati holatini bildirib keladiki, bu metaforik sifatlash deyiladi. Chunonchi: *oltin vodi*, *o't yurak*, *tosh ko'ngil*, *po'lat bilak* kabilar metaforik sifatlashlardir.

Muammo (arabcha berkitilgan, yashiringan so'zidan) - poetik o'yin tarzida bitilgan bir baytli she'r bo'lib, unda biror so'z, ko'pincha, atoqli otning harflari yashiringan va shunga ishora qilingan bo'ladi. Kitobxon ishoralar yordami bilan shu so'zni topib she'riy jumboqni yechadi.

Muammo xususan XV asrda bir janr sifatida keng tarqalgan. Muammo aytish yoki muammo yechish go'yo bir sinov bo'lgan. Navoiy, Jomiy, Vosifiy va boshqalar muammo aytish va muammo yechishda ham shuhrat topganlar. Shoirilar

muammo usulidan boshqa janrdagi asarlarida ham foydalanganlar. Masalan, Navoiy Farhod nomini muammo yo`li bilan izohlash orqali qahramonining sifatlari va kurash yo`liga ishora qiladi:

Jamolidan ko`ringach farri shohi,
Bu fardin yorudi mah to ba mohi.
Qo`yub yuz himmati iqbolu davlat,
Ham ul far soyasidan topti zinat...
Anga farzona Farhod ism qo`ydi,
Hurufi ma`xain besh qism qo`ydi.
Firoqu, rashku, hajru oh il dard
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Mubolag`a - narsa yoki hodisaga xos xususiyatni oshirib, mahovat qilib tasvirlash.

Mubolog`a obrazni bo`rttirishg va shu yo`l bilan asarning ta]sir kuchini oshirishga hizmat qiladi.

Oh, urisa olamni buzar tovushi,
To`qson molning terisidan kovushi. (Alpomishdan)

Mumtoz adabiyotimizda mubolag`a badiiy mahorat belgisi va asar uchun zarur bo`lgan bir fazilat sanalar edi. Navoiyning:

Orazin yopqoch ko`zimdan to`kilar har lahza yosh,
O`ylakim paydo bo`lur yulduz, nihon bo`lgach quyosh –

Navoiy bu baytida yorning orazini (yuzini) yopishini quyoshning botishiga, sohibjamol visolidan mahrum bo`lib, to`kkan ko`z yoshlarini quyosh botganda, osmonda paydo bo`ladigan yulduzlarga o`xshatadi, shunday qilib, to`kilgan ko`z yoshlarini yulduzlar singari hisobsiz demoqchi bo`ladi.

Behad orttirma mubologa *bulug* yoki *ifrot* deyiladi.

Radif - misralarda qofiyadan keyin takrorlanib keladigan bir xildagi so`zlar:

So`z gulshanining bulbuli go`yosi Navoiy
Ma`ni sadafining duri yaktosi Navoiy.

Radif ham qofiya singari misralardagi so`zlarning ohangdorligi va estetik ta`sirchanligini ta`min etishdaigan muhim komponentlardandir.

Radif qofiyadan so`ng takrorlanib keladigan bir so`z yoki bir necha so`z birikmasidan iborat bo`lishi mumkin:

Xiroming chog`i yo`ldosh o`lsam erdi
Sukunat vaqti qo`ldosh o`lsam erdi.

(“Shirinning Farhodga xati” dan)

Mumtane (arabcha *imkonsiz, man qilingan* so`zidan) – klassik adabiyotda qo`llangan adabiy usullardan biri bo`lib, imkonsiz bo`lishi mumkin bo`lmagan narsani bo`lgan narsa tarzida bayon etishdir. Masalan:

Ariqkim muzdiga yuz ganj berdim,
Suvi kelmay elik andin yub erdim.

(Navoiy, “Farhod va Shirin” dan)

Bu baytda, hali suv oqib kelmagan ariqda qo`l yuvdim, ma`nosi ifodalangan.

Oksimoron (grekcha *oxymoron* – o`tkir ma`noli bema`nilik so`zidan) – o`z ma`nosidan ko`chirilib, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalab kelgan so`zlar, komponentlari mohiyat e`tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo`lgan ko`chma ma`nodagi birikma. Masalan: shirin azob, zulmat ziyosi

Shirin qasosning oqibati nima?

Shirin o`limmi? (Tohir Malik, “Shaytanat” 5-kitobdan)

Lov-lov yonayotir quyosh – ul najot,
Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog`.
Shunday yuragimda *tovushsiz faryod*,
Men senga inonmoq istayman, evoh...
(Rauf Parfi “Muhabbat” she`ridan)

Radif – misralarda qofiyadan keyin takrorlanib keladigan bir xildagi so`zlar:

So`z gulshanining bulbuli go`yosi Navoiy,

Ma`ni sadafining duri yaktosi Navoiy.

Radif qofiyadan so`ng takrorlanib keladigan bir so`z yoki bir necha so`z birikmasidan iborat bo`lishi mumkin:

Xiroming chog`i yo`ldosh o`lsam erdi

Sukunat vaqti qo`ldosh o`lsam erdi.

(Navoiy. “ Farhod va Shirinn”dan.)

Ritorik so`roq – stilistik usullardan biri bo`lib, poetik nutqda ifodalangan fikrni so`roq shaklida tasdiqlashdan iboratdir. Ritorik so`roq intonatsiyani kuchaytirish vositasi bo`lib ham xizmat qiladi:

Boqmas menga jonona, ajab holat emasmu?

Bo`ldi yana begona, ajab holat emasmu?

(lutfiy)

Ritorik murojaat – nido va xitob tarzidagi murojaat, stilistik usullardan biri.

Ritorik murojaat ham, ritorik so`roq singari, she`riy ritmik nutqda intonatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Xorazmiy “Muhabbatnoma”da shamol orqali salom yo`llash usulidan tashqari murojaat undov-nido usulidan ham foydalanadi.

Ayitkil, e visoling umr bog`i,

Eshiging tuprog`i kavsar bulog`i.

Ayitgil, e so`zi yolg`on, jafokor,

Qovoqlari qaroqchi, o`zi ayyor...

Ruju` (arabcha – *qaytish* so`zidan) – shoir ba`zan kishi, narsa va hodisani dastlab xayoliga kelgan ma`lum obrazli ifoda orqali tasvirlab, ayni zamonda poetik ifoda va estetik ta`sirni kuchaytirish niyatida undan kuchli so`z - obraz yaratadi va buni avvalgisidan kechish yoki qaytish yo`li bilan beradiki, bu hol adabiyotshunoslikda *ruju`*

deyililadi. Masalan:

Bu durri noyob vafmi ekan,

Gar ul emas, mehriyomi ekan?

Mehriyoyo demakki, anqodur ul,

Javhari fardu, duri yaktodur ul.

(Navoiy, „Mahbub ul-qulub“)

Azm ayla sabo ul guli xandonimga,
Ne gulki, quyoshdek mahi tobonimga.

(Bobur)

Saj' arabcha – qofiyali proza , bu ko`proq xalq og`zaki ijodiga xos bo`lib, klassik proza, ko`pchilik tarixiy asrlar saj' bilan yozilgan. Xalq ertaklari va dostonlarining nasriy yo`l bilan yozilgan o`rinlari ham saj' usulidadir. Xalq ertaklarining traditsion boshlanmasi bo`lgan „Bor ekan, yo`q ekan, osh ekan, to`q ekan, bo`ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan...“ gaplari ham sajning bir ko`rinishidir. Xalq og`zaki ijodiga xos bo`lgan bu usul yozma adabiyotda ham uchraydi. Misol ushun A. Navoiyning „Mahbub- ul qulub“ („Ko`ngillarni sevgani“) asarining ayrim o`rinlari shu usulda yaratilgan. Masalan: „Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo`lin ochar...“ kabi.

Saj' usulida yaratilgan prozaik asar yoki prozaik parcha *musajja'* deb yuritiladi.

Qofiyalanuvchi so`zlarning hijo miqdori teng va ohangdosh bo`lsa, *mutavozi saj'* deyiladi. Masalan: *sochar – ochar*.

Agar so`zlar ohangdosh bo`lib hijolari teng miqdorda bo`lmasa, *mutarrafi saj'* deyiladi. Masalan: *yor – ag`yor*.

Hijolar miqdori teng bo`lib, ma'lum ohangdoshligiga qaramay, shakl o`zgacha bo`lsa, *mutavozin saj'* deb yuritilgan. Masalan: *taqdir –taqdim*. Bu usuldagi nasr *murajjaz nasr* deb nomlangan.

Sarkazm (grekcha *sarkasmos* – *qiynash, ozor berish* so`zidan)- achchiq zaharhanda, itehzoli ta'na, piching. Sarkazm, ayniqsa, satirik tasvirda fosh etishning muhim usullaridan biridir.

Masalan: Hamza Hakimzoda “Bir eshon hazratlari aytarlar ekan” degan satirik se'rida eshonga “o`z tili”dan aytilgan misralar orqali xarakteristika berib, sarkazmdan keng foydalanadi:

yoki tushuncha hamda narsalar ifodasi uchun shartli ravishda ko`chma ma'noda qo`llaniladigan so`z yoki so`z birikmasi olinadi. Masalan, kabutar- tinchlik ramzi; tong – quvnoqlik, yoshlik, baxt ramzi va boshqalar.

Sinekdoxa (grekcha *synekdoche*) – metonimiya (majoz)ning bir turi bo`lib, unda bir butun narsa, hodisa va inson haqida uning uzviy bir qismi, bo`lagi orqali fikr yuritiladi. Masalan:

Osmonda sayr etar million juft ko`zlar

Tutilib, shoshilib, hovliqib tillar

Parashyutchi qizni – Bashorni so`zlar.

(Uyg`un, “Quyosh o`lkasiga”)

Sifatlash – tushuncha, hodisa va kishining ma`lum bir xususiyati va sifatini aniqlab, izohlab, xarakterlab beruvchi so`z.

Sifatlash yolg`iz o`zi kelmasdan, ma`lum so`z birikmasi tarkibida o`z mohiyati, o`z belgilarini unga ko`chirgan holda keladi. Bunday birikma metaforik sifatlash deyiladi. Masalan: *oltin vodi, zumrad bahor, kumush qish*

Sifatlash ishlatishdan maqsad kitobxon diqqatini kuzatilgan tomonga, hodisaning ma`lum bir belgisiga jalb etishdan iborat.

Sifatlashda, ko`pincha, sifatdan foydalanilsa ham, turli so`z turkumlari sifatlash bo`lib kela oladi. Chunonchi: qizil bayroq – sifat; zar do`ppi – ot; kulib gapirdi – ravish.

Keng dala, bepoyon cho`l, yam-yashil bog` singari ko`plab ishlatiladigan sifatlashlar ham borki, ular doimiy sifatlashlar deyiladi.

Tadrij (arabcha)-klassik poeziyadagi badiiy usullardan biri bo`lib, darajama

daraja rivojlantirib borish manosi ifodalaydi. Tadrij voqeaband (q) she`rlarga xos bo`lib, she`rdagi bir obraz yoki (tushuncha) o`xshatishlar vositasi bilan rivojlantirilib boriladi. Kitobxonning ko`z o`ngida bir obraz (yoki tushuncha) ning o`xshatishlar sirasi bilan ifodalangan mukammal badiiy lavhasi gavdalanadi. Masalan:

Yordan ayru ko`ngul mulke durur sultoni yo`q,
Mulkkum, sultoni yo`q, jisme durur kim, joni yo`q
Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlar, kim ul,
Bir qaro tufroqdek durkim, gulu rayhoni yo`q.
Bir qaro tufroqkim, yo`qtur gulu rayhon anga
Ul qarong`u kechadekdurkim, mahi toboni yo`q...
(Navoiy.)

Yuqoridagi misralarda (g`azalning oxiriga qadar) yordan ajralgan ko`ngil (oshiq) ning holati haqida so`z boradi. Birinchi misrada yordan ajralgan “ko`ngil” “sultonsiz mamlakat”ga o`xshatilsa, ikkinch misrada “sultonsiz mamlakat” “jonsiz jism”ga o`xshatiladi va hokazo. Aslida “sultonsiz mamlakat” ga nisbatan qo`llangan “jonsiz jism” ham “yordan ajralgan ko`ngil”ga borib taqaladi.

“Yordan ajralgan ko`ngil”- “sultonsiz mamlakat” – “jonsiz jism” .

Tajnis (arabcha)-omonim (q) so`zlarni qo`llash hamda qo`shimchalar vositasi

bilan yo soʻzlarni tarkiblarga ajratish bilan hamshakl qilish. Bu soʻz oʻyini deb ham yuritiladi. Toʻliq – tajnis barcha imkoniyatlardan foydalanilgan tajnis – “**tajnisi tom**” deyiladi. Tajnis tuyoq (q) janirida keng qoʻllaniladi. Masalan:

Chun pariyu hurdur *oting*, begim,
Surʼat ichra dev erur *oting*, begim.
Har xadanggikim, ulus ondin qochar,
Notavon jonim sori *oting* begim. (Navoiy.)

Tajohili orifona (arabcha - bilib - bilmaslikka solish) - klassik poeziyada oʻxshatish usullaridan biri boʻlib, shoir oʻxshatish obʼektini kuchaytirib, boʻrttirib koʻrsatish maqsadida oʻsha obʼektga nisbatan bir yoki bir necha oʻxshatish qoʻllab oʻxshatishdan soʻng, goʻyo “xato” qilgandek oʻz taajjubini ifodalaydi. Aslida esa uning oʻxshatishida hech qanday xato boʻlmaydi

M a s a l a n:

May birla yuzing tim-tim ahmarmu ekin oyo?
Yo shuʼla aro bir - bir ahkarmu ekin oyo?
Har sori qulogʻingda gavharmu ekin, yohud
Har jonibida oyning axtarmu ekin oyo? (Navoiy)

Tazod arabcha soʻz boʻlib, (antiteza (q)) qarshilantirish usulining klassik adabiyotda qoʻllangan bir koʻrinishi. Tazodda qarama-qarshi qoʻyilgan ikki tomon ayni zamonda uzviy ravishda bir-biriga bogʻlanib keladi. Masalan:

E Masihodam begim, bir dam birla bergil shifo,
Sheva birla koʻzlaring jonimni bemor ayladi. (Sakkokiy.)

Yoki:

Aning obi hayotdek soʻzidin –
Bordi, oʻlgan kishi kabi, oʻzidan (Navoiy.)

Afsonaga koʻra, “obi hayot” oʻlgan kishini tiriltiradi, ammo bu yerda muaofirning “obi hayot kabi soʻzidan” Bahrom oʻlgan kishi kabi oʻzidan ketgan.

Tanosib arabcha soʻz boʻlib, poetik usullardan biri. Oʻzaro munosabatda boʻlgan ikki tushuncha yoki narsaning bir-biriga bogʻlangan holda kelishi.

Misol:

Jonim badaning shifosi boʻlsin,
Boshing qadaming fidosi boʻlsin. (Navoiy.)

Bu baytda *jon* bilan *badan*, *bosh* bilan *qadam* oʻzaro munosabatda boʻlib, bularning har ikkalasi bir-biriga bogʻlab berilgan.

Tarseʼ – klassik poeziyadagi poetik usullardan biri boʻlib, unda misralardagi barcha soʻzlar (birinchi misradagi soʻzlar bilan ikkinchi misradagi soʻzlar) bir-biriga ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh boʻlib keladi.

Misollar:

Kirsun (bu) savodi (a'zam) ichra,

Kezsun (bu) bilodi (motam) ichra.

(Navoiy. "Layli va Majnun" dan)

Ul (bo`lmasa) (bo`lmaq`ay) kitobat,

Bul (bo`lmasa) (qolmay) hikoyat.

(Munis, "Savodi ta'lim" dan)

O`xshatish – narsa, hodisa yoki tushunchani ma'lum umumiylikka, o`xshashlikka ega bo`lgan boshqa narsa, hodisa yoki tushuncha bilan chog`ishtirish. O`xshatish to`g`ridan-to`g`ri o`xshash tomonni ko`rsatish bilan yoki *-dek, (-day), o`xshash, xuddi, go`yo, misli, singari, yanglig`, sumon* kabi so`zlar yordami bilan tuziladi. Masalan:

Dedikim: ishqig`a ko`ngling o`rundir?

Dedi: - ko`nglimda jondek yashirundir.

(Navoiy, "Farhod va Shirin" dan.)

O`xshatish ikki xil bo`ladi: *qisqa va to`liq o`xshatish*.

Qisqa o`xshatishda faqat o`xshagan va o`xshatilgan narsa bo`ladi. Masalan:

Osh yesalar o`rtada sarson ilik,

Xo`ja – *chirog` yog`i*, Hakimjon – *pilik*.

(Muqimiy, "Tanobchilar" dan)

To`liq o`xshatishda:

- o`xshagan narsa;
- o`xshatilgan narsa;
- o`xshash sifat;
- o`xshatish qo`shimchasi (-dek, -day...)

mavjud bo`ladi.

Qo`limdagi sharob to`la piyola

Qip-qizildir go`yo bahorgi lola.

Qip-qizil botayotgan kun kabi,

Qip-qizildir go`yo qizlarning labi.

(H. Olimjon, "Qadah")

O`tmish adabiyoti va adabiyotshunosligida o`xshatish *tashbeh* deb yuritilgan.

Ba`zano`xshagan narsa o`rniga o`xshatilgan narsa aytiladiki, bu ochiq istioradir.

O`xshagan narsaga nisbatan qo`llanilgan o`xshatilgan narsa bir necha bo`lsa, u holda bunday o`xshatish "tashbihi musalsal" (ketma-ket o`xshatish) deb ataladi;

May birla yuzing tim-tim *ahmarmu* ekin oyo?

Yo shu`la aro bir-bir *axkarmu* ekin oyo?

(Navoiy)

Tinish belgilari va ularning qo'llanilishi

Reja:

1. O'zbek tili punktuatsiyasi.
2. O'zbek tilida tinish belgilari.
3. Nuqta.
4. So'roq belgisi.
5. Undov belgisi.
6. Vergul.
7. Qavs.
8. Nuqtali vergul.
9. Ko'p nuqta.
10. Tire.
11. Qo'shtirnoq.
12. Ikki nuqta.

Punktatsiya yozma fikrni aniq va ravon, tushunarli va ifodali bayon qilishda muhim ahamiyatga egadir. Yozma nutqning ayrim leksik-garamatik vositalar bilan ifoda qilish mumkin bo'lmagan tomonlarini ifoda qilishda punktuatsiyaning ahamiyati yanada ortadi.

Punktatsiya tilshunoslikda uch ma'noda qo'llanadi: tinish belgilari sistemasi va ularning qo'llanish qoidalari haqidagi bilim; tinish belgilarining qo'llanishi haqidagi qoidalar to'plami; tinish belgilari.

Umuman, punktuatsiyaning tekshirish obekti tinish belgilaridir.

Punktatsiya grafika va orfografiya, sintaksis, intonatsiya bilan uzviy aloqadordir.

O'zbek tili punktuatsiyasining birinchi asosi o'zbek tilining grammatik sistemasi nutqning mazmun, intonatsiya va tuzilish tomonlarining bir butunligini tashkil qiladi. Bu o'zbek tili punktuatsiyasining negizidir.

O'zbek tili punktuatsiyasining ikkinchi asosi rus tilining punktuatsion sistemasidir. Bu o'zbek tilidagi ko'pchilik tinish belgilarining rus tilidan o'zlashganligi, rus tili punktuatsiyasining ilmiy va nazariy jihatdan chuqur ishlanganligi, bilan bog'liq. Punktatsiya prinspi –tinish belgilarining qaysi usul va tartibda qo'llanilishi demakdir.

O'zbek tili punktuatsiyasining prinsplari quyidagilardir.

1. Logik-grammatik tamoyil. Bu prinsipda tinish belgilarining qo'llanishi nutqning mazmuni, tuzilishi, intonatsiyasi bilan bog'liq.
2. Stilistik tamoyil. Bu prinsipda tinish belgilarining qo'llanishi nutq stili bilan aloqador bo'ladi.
3. Differensiya tamoyil. Bu prinsipda tinish belgilarining qo'llanishi yozuv texnikasi (formasi) ni aniqlash (differensiya qilish) bilan bog'liq. Tinish belgilarining qo'sh qo'llanish sistemasi (masalan boshida yoki oxirida ikki qo'shtirnoqning barobar qo'llanishi) ham shu prinsipga a'loqador.

O'zbek tilida ishlatiladigan tinish belgilari

O'zbek tilida tinish belgilari 10 ta. Ular quyidagilardir:

Nuqta	.
So'roq belgisi	?
Undov belgisi	!
Nuqtali vergul	;
K'p nuqta (uch nuqta)	...
Vergul	,
Ikki nuqta	:
Tire	-
Qavs	()
Tirnoq (qo'shtirnoq)	“”

Tinish belgilarining tasnifi.

O'zbek tilida tinish belgilari quyidagi xususiyatlari asosida klassifikatsiya qilinadi:

1. Qo'llanish o'rniga ko'ra.
2. Qo'llanish usuliga ko'ra.
3. Tuzilishiga ko'ra.

Tinish belgilari qo'llanish o'rniga ko'ra uch gruppaga bo'linadi:

1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari.
2. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari.
3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga *nuqta, so'roq va undov belgilari* kiradi.

Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilariga *vergul* kiradi.

Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilariga *ikki nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq, qavs, tire, ko'p nuqtalar* kiradi. Bulardan tire gap boshida va o'rtasida, ikki nuqta, nuqtali vergul gap o'rtasida va oxirida: qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta gap boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanadi.

Tinish belgilari qo'llash usuliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Yakka holda qo'llanuvchi tinish belgilari.
2. Yakka va qo'sha qo'llanuvchi tinish belgilari.

Yakka holda qo'llanuvchi tinish belgilari yakka va qo'sha qo'llanadi.

Tinish belgilari tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Bir elementli tinish belgilari.
2. Ko'p elementli tinish belgilari.

Bir elementli tinish belgilariga *vergul, tire, nuqta* kiradi.

Qolgan tinish belgilari ko'p elementlidir.

Tinish belgilarining qo'llanishi

Nuqta

Nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi!

1. Darak gap oxirida: Og'irliklarni engmoq mardning ishi. (P.T)
2. Tinch oxang bilan aytilgan buyruq gaplar oxirida: Avval o'yla, keyin so'yla. (maqol)
3. Remarka tipidagi gaplar oxirida: Jamila. Jnajon, ukamni boylar xizmatiga bermang, bir iloj qilib, birovga berib o'qiting, men uchun koyimasangiz ham

bo'ladi, meni qarg'amang, qarg'amang badbaxt qizingizni, onajon! Qanday issiq mehribon ko'krak bu! (Boshini Rahima xola ko'ksiga qo'yar, yig'lar) Nima qilay ilinjim yo'q. (Birdan qo'rqinchli bir fikr kelar.) . Onajon! Bolam nima bo'ldi, bolam?! Axir men unga zo'r umidlar bog'lagan edim, men uni o'qitarman degan edim, u menga G'ofirjondan bir xotira edi, axir, ona, o'zingiz o'ylang, bolam kundoshlar qo'lida xo'rlanadimi? (H.H)

4. Numerativlar bilan ko'rsatilgan gaplar oxiriga:

Bir sostavli gaplarbosh bo'lagining tabiatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Egasiz gaplar.

2. Kesimsiz gaplar.

5. Harflar yoki raqamlar bilan ko'rsatilgan numerativlardan so'ng: shaxsi topiladigan gaplar shaxs tasavvuri harakteriga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

a) Shaxsi aniq gap.

b) Shaxsi noaniq gap.

c) Shaxsi umumlashgan gap.

6. Ayrim shartli qisqartmalardan keyin yozuv texnikasiga ko'ra nuqta qo'yiladi: A.Qahhor, Sh. Rashidov, A.S. Pushkin va boshqalar.

7. Sitataning manbaini ko'rsatuvchi kiritmalar tekst ichida yoki

havolada berilsa, avtor gapidan so'ng va oxirgi so'zdan so'ng nuqta qo'yiladi:

1. Bobolarda bir so'z bor.

Eshiting og'ajon:

“Bosgan izidan qaytmas,

O'lsa ham arslon!”. (Hamza. “Berma erkingni qo'ldan”.)

2. K.Nazarov. O'zbek tili punktuatsiyasi, “O'qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1976 yil.

So'roq belgisi

So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. So'roq gaplar oxirida: Shuncha qurilishni qachon qilishdi? Qanday ulgurishdi? (I.R)

2. Taqrizlarda va sitatalarda biror so'z yoki jumla gumon yoki anglashilmovchilik tug'dirsa, bunday so'z yoki jumladan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi va bu qavis ichiga olinadi: “Mihail Ivanovich Akaskin qiriq besh yashar qolin (?) gavdali, mo'ylovdor, hushmuomala, xulqi soda va yoqimli kishi edi”. (O)

3. *Kim, nima, qanday, qachon, qanday qilib, nima qildi* kabi so'z va iboralar so'roq ma'nosida ishlatilsa, ulardan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi. Ega *kim?, nima?, qaer?*, degan so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

Undov belgisi

Undov belgisi quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Undov gaplar oxirida: Chindan ham poyonsiz cho'lda hayot tantana qildi! (Sh.P)

2. Buyruq gaplar oxirida: Qahramonim, arslonim, mehribonim, bo'l omon! (H.O)

3. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar, nominativ gaplar emotsionallikka ega bo'lganda, ulardan so'ng undov belgisi qo'yiladi: Siz chakana mehnat qilmadingiz. Qoyil!

Nogoh katta darvoza tomondan tanish ovoz yangradi: - Ermat aka!

4. Gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng undov belgisi qo'yiladi: Onajonlarim! Nechuk shamol uchirdi? (A.Q)

Vergul

Vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz, sanash ohangi bilan uyushgan bo'laklar o'zaro vergul bilan ajratiladi: Kelajak yorqin va eng go'zaldir. Uni sevingiz, unga intilingiz, uning uchun ishlatingiz, uni yaqinlashtiringiz. (Chernishevskiy.)
2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: Xotirjam bo'ling, otaxon, maqsadingizga yetasiz. (H.G'.)
3. Kirish so'z va iboralar vergul bilan ajratiladi: Ilmsiz, ma'rifatsiz yangi turmush qurib bo'lmaydi, albatta. (H.G')
4. Tasdiq yoki inkorni bildiruvchi so'zlar gap boshida kelganda vergul bilan ajratiladi: Ha, cho'ponlar kam uyqu bo'ladi. (Sh.R.) Xo'p, soat beshlarda etib boraman. Yo'q, to'yni hali boshlaganimiz yoq. (A.Q.)
5. Ajratilgan bo'laklar vergul bilan ajratiladi: Ko'kda, daraxtlar ustida, g'uj-g'uj yulduzlar yonadi. (O)
6. Qo'shma gap komponentlari vergul bilan ajratiladi: Darhaqiqat, bo'ron kuchli, ammo dehqonlar undan kuchli. (Sh. P.)

Qavs

O'zbek tilida quyidagilar qavsqa olinadi:

1. Kiritma konstruksiyalar: Men mulla akani (Muqumiyni shunday atardilar) bohavoroq deb supachaga boshlab keldim. (Tuyg'un)
2. Remarklar: Sodiq. Qizarib ketgan ekanman, qarang, aka, mingboshini ham (Bo'ripolvonga kalla solib ko'rsatmoqchi bo'lib yoqasidan oladi, u qo'rqib dodlab yuboradi) mana shunday kalla qilib cho'ziltirmoqchi edim-u, nomardlar orqadan kelib qolimni bog'lab qoldilar. (Nazir Safarov.)
3. Sitata yoki misolning manbai: Badantarbiya bilan mo'tadil va o'z vaqtida shug'ullanuvchi kishi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaydi. (Abu Ali Ibn Sino.)
4. Tushintirish izoh, o'qitish ma'nosidagi so'z, birikma va gaplar:
Yashasin jonajon mustaqil O'zbekistonimiz (Farg'ona viloyatining yirik tumani) qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirishda katta muvoffaqiyatlarga erishmoqda. Lingvistika (til haqidagi fan) tez rivojlanib boryapti.
Matbutda ilmiy asarlarda uchraydigan boshi 3- betda, davomi bor kabi iboralar ham qavs ichiga olinadi.
5. Sitatalarda gumon anglashilmovchilikni bildirish uchun qo'llangan so'roq belgisi ham qavs ichiga olinadi. (So'roq belgisining qo'llanishiga qarang.)

Nuqtali vergul

Nuqtali vergul quyidagi hollarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: Pavel noto'g'ri soliq solinayotganligi va ishdan nuqul zavod foyda qilajagini tushuntirib berdi; ular ikkovi ham qovoqlari soliq chiqib ketdilar. (M.G.)
2. Raqam yoki harflar bilan ifodalangan numerativdagi gaplar oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi:
Hozirgi asosiy vazifamiz quyidagilar;

- a) Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda berilgan bilimlarni puxta egallash;
- b) Ko'rsatilgan adabiyotlar bilan o'z vaqtida tanishib borish;
- v) Jamoat ishlarida faol qatnashish;
- g) Sessiya, imtixon va sinovlarini muvoffaqiyatli topshirish.

3. Murakkab qo'shma gap qismlari nuqtali vergul bilan ajratiladi:

Er ko'karmas, el yasharmas,

Bo'lmasa ko'k tomchisi;

Qanday olsin she'rni shoir

Bo'lmasa ilhomchisi? (A.To'qay)

Ko'p nuqta

Ko'p nuqta quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmagan gaplar oxirida: Karim. Ha, shunday...

Jiyaning Salimjonni ham uning quruq oqsoqol mardikorlikka haydatdi. Etti oy bo'ldi. Na xat bor na habar... buning ustiga kampir ham qazo qildi. O'sha katakday hovlini qarzga o'tkazib... Mana shunday... Bolangdan aylanay, Rahimboy. (yig'lab ketmonni ko'rsatdi.) ana shu hol, ana shu kun... O'zingdan ahvol so'ray? (Nazir Safarov.)

2. Sitata yoki olingan misollardagi ayrim so'z va gaplarning tushirib qoldirilganligini ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: Rus tili "eng boy tillardan biridir..." "Rus tili "shunchaki o'rganishga ham ... undagi adabiyotlarni o'qish uchun ham o'rgansa arziydigan tildir..." (F.Engles.)

3. Kuchli hayajonni, emotsionallikni bildiruvchi undov so'zlardan keyin ko'p nuqta qo'yiladi: To'raxanov. Oh... Honim bilsangiz edi yuragimda yonayotgan g'azab o'tini... (Nazir Safarov.)

4. "O'zbek tili" darsliklarida o'rganilayotgan ma'lum harf (tovush), affiks yoki so'z o'rniga ko'p nuqta qo'yadilar. 191- mashq. Nuqtalar o'rniga mos keladigan so'zlarni qo'yib ko'chiring. Issiq..., yosh-..., sabzi-...da boshqalar.

Tire

Tire quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ega va kesim orasida: Mardikor olish? Bu-qandayhangoma? (O)

2. Ajaratilgan bo'laklarni ajratishda: Qo'chqorov do'ng peshona, qirra burun, polvon yigitcha –kichkina tuman gazetasiga ko'z tikib o'tirardi.

3. Ko'chirma konstruksiyalarni chegaralash uchun: Hovli o'rtasidagi yosh nihollarorasidagi bola Ma'rifat Hojining o'g'ilchasi bo'lsa kerak-kapalak quvib yurardi. ("Sharq yulduzi")

4. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: Vatanning tinch-sen tinch. (maqol)

5. Diologlarda har bir shaxs nutqini birini ikkinchisidan ajratish uchun: Kozimbekka Saida qardi. Kozimbekning rangi bir ahvolda bo'lsa kerak, qushi uchib deraza oldiga keldi.

-Tinchlikmi?

-Tinchlik, dedi Kozimbek o'zini bosib,-Toshkentdan keldim... Saida taajjublanganday bo'ldi.

- Bilaman kecha kelgan edingiz...

- Mashinani olib keldim...
- Shunaqami... Qutlug' bo'lsin! Qani?
- Hovlida, qo'lingiz bo'shasa, bir bir aylantirib kelsam degan edim.
- Rahmat... Biron soatda bo'sharman. (A.Q.)

6. Kochirma gaplarda avtor gapini ajratish uchun: "Ko'rdingizmi Olimjon aka dedi oyqiz erga qarab, tabiat bizning qo'limizda". (Sh.R.)

7. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushuq bo'laklardan keyin kelganda: Payonsiz paxta dalalarining husni va barakasi, so'lim bog'larning sharbati va gullarning ming tovlangan ranglari – barchasi suv tufayli. (O.)

8. Texnik qulaylik, nutqni ixchamlashtirish uchun: Andijon-Maskva poezdi. "Paxtakor"- "Dinamo". 22.00- "Vaqt" informatsion programmasi. Toshkent-1977 y.

Qo'shtirnoq

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: Yosh kitobxon, L.Tolstoyning quyidagi so'zlarini doimo esda tut: "Hayot qanchalik yaxshi bo'lmasin, uning yutuqlari qnchalik katta bo'lmasin, hech vaqt bu bilan hotirjam bo;lib qolma, doimo buyuk ishlarga tomon intil..."

2. Tsitatalar har vaqt qo'shtirnoq bilan chegaralanadi: "Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar ifodalangan bo'ladi". (M.Gorkiy.)

3. Ba'zi kesatiq yoki boshqa ma'nolarni ifoda qiluvchi so'zlar qo'shtirnoq ichiga olinadi: Tekintomoq "havaskor" larning holi ohiri voy bo'ladi.

4. Badiy asar, gazeta, jurnal, kartinalarning nomlari, ayrim muassasa, tashkilot, kolxoz, savxoz, zavod, fabrika kabilarning nomi qo'shtirnoqqa olinadi: "Qutlug' qon" romani, "Mushtum" jurnali, "O'zbekiston" mehmonxonasi, "O'rtoq" fabrikasi va boshqalar.

5. Mahsulolarning nomi, O'simliklarning turi, mashina, paraxod, samalyot, televizorlarning markasining bildiruvchi nomlar qoshtirnoqqa olinadi:

6. Sinflar, kurslar, buyruq va qarorlarga qo'shilib yoziladigan harflar qo'shtirnoqqa olinadi: 5-"A" sinf, 11-"B" kurs, 95-"B" buyruq, 12-moddaning "G" bandi va boshqalar.

7. Baho ballari qo'shtirnoqqa olinadi: "besh baho, "yaxshi" baho.

Ikki nuqta

Ikki nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: Mehmon rost aytadi: odamning himmati qilgan ishidan bilinadi. (M.G.)

2. Umumlashtiruvchi bo'lak uyshuq bo'laklardan oldin kelganda: Bularda kolxoz haqidagi asosiy ma'lutlar: - Ekin maydoni, yil sayin etirgan hosili, olgan daromadi va xokazoiar yirik raqamlar bilan ko'rsatib qo'yilgan edi. (H.N.)

3. Avtor gapi ko'chirma gapdan oldin kelganda: Rus halqining atoqli lashkarboshisi Suvorov shunday degan edi: "Son bilan emas, mahorat bilan jang qiladilar".

4. Nutq ichida masalan, misol, chunonchi, tema kabi so'zlardanso'ng: masalan: maktab, zavod:

Sintaksis haqida tushuncha

Reja:

I.KIRISH. Til- ijtimoiy hodisa.

II.ASOSIY QISM:

1. Sintaksis haqida tushuncha.
2. Gap va uning belgilari.
3. Qo'shma gaplar komponentlari.
4. Gaplarning strukturasi ko'ra turlari.

III.XULOSA.

Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi, tilning tasnifi, uni tahlil etish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fandır.

Tilni tilshunoslikdan tashqari, falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Ma'lumki tafakkurga dahldor masalalar mantiq ilmining mavzusidir. Shu tufayli mantiqchilar tafakkur qonuniyatlari bilan birga, fikrning tilda aks etishini o'rganmasliklari mumkin emas. Undan tashqari, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan. Biri –ikkinchisiz yashay olmaydigan hodisadir. Tafakkur tilda yashaydi. Har qanday nutq asosida esa, tafakkur yotadi.Mantiq tilni ana shu yo'nalishda o'rganadi.

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi tufayli til sotsiologlar tomonidan ham o'rganildi. Ma'lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea va hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. Shunga ko'ra tarixchilar til tarixiga, tilshunoslik esa, o'z navbatida tirix faniga murojaat qiladilar. Demak, tilshunoslar tilga oid masalalarni hal etishda etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika va boshqa fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar.

Til faqat tilshunoslik emas, balki boshqa fanlar uchun ham o'rganish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu sohadan har bir fan o'z mavzusini ajratib oladi. O'rganish sohasini ajratib olish nuqtai nazardan tilshunoslikni ikki turga ajratilishi qator adabiyotlarda ko'rsatib o'tiladi.

Makrolingvistika (katta tilshunoslik)

Mikrolingvistika (kichik tilshunoslik)

Makrolingvistika tilni boshqa fanlar bilan qo'shib o'rganadi. U tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari qonunlari tilning ijtimoiy mohiyati uning tafakkur bilan munosabatini til va signal sistemalari orasidagi o'xshashlik va farqlanishi, tilning tarqalishi kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Mikrolingvistika esa, tilning faqat ichki –fonetik, leksik va gramatik tuzilishini o'rganishi bilan xarakterlanadi.

Olimlar o'rtasida tilga turlicha ta'riflar berilishi ko'zga tashlanmoqda:

“Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishorlar majmuidir” (F. De. Sossyur).

“Odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mehanik harakatidir” (L. Blumfild)

“Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir” (B. Grosse).

Ushbu fikrlar tilning u yoki bu tomonini ta'riflash uchun xizmat qiladi. Biroq ularda tilning ijtimoiy mohiyati masalasi e'tirof etilmaydi. Shuni ham aytib o'tish zarurki, til ijtimoiy jihatdan shunchaki, aloqa vositasi bo'lib qolmay, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

Til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo'llaydi. Boshqa aloqa vositalari ishlatilish ko'lami cheklangan. (masalan ko'cha harakati belgilari asosan haydovchilarga xizmat qiladi, boshqa yerda ishlatilmaydi).

Til quruq axborotning o'ziningina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi.

Tildan boshqa hamma sistemalar sun'iydir, ular odamlar tomonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarning yaratilishida odamlarning hammasi emas, balki mazkur sohani yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til esa odamlarning istak xohishlariga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari o'z ixtiyorlari bilan o'zgartira olmaydi. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi. Garchand til o'zgaruvchan hodisa bo'lsa-da, u faqat o'zining ichki ob'ektiv qonunlari asosida rivojlanadi. Shu bilan birga, jamiyat bo'lmasa, til bo'lmaydi, jamiyat tilni kundalik hayotda qo'llamasa, til rivojlanmaydi. Demak, til va jamiyat doimo bir-birini taqozo etadi. Boshqa signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchi unga qo'shimcha vosita sifatida, namoyon bo'ladi hamda uni to'ldiradi.

Yuqoridan ko'rinadiki, til o'ziga xos ishoralar sistemasi ya'ni semiologik sistema tarzida jamiyatdagi eng muhim aloqa quroli, jamiyat tafakkurining taraqqiy etkazuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Muayyan bir davrga kelib, yozuvning yaratilishi bilan aloqa vositasi bo'lgan tillar yozuvda aks etgan. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida jamiyatning asosiy aloqa vositasi sanalgan til va uning xususiyatlari borasida har xil qarashlar vujudga kelgan. Ma'lum toifa olimlar tilni hayvon, o'simlik kabi jonli narsalarga o'xshatib, tilni hayvon o'simlik kabi tabiatdagi tirik organizm deb tushunganlar. Uning fikricha, til tirik organizm singari, tabiat qonunlariga itoat qilgan holda tug'iladi, o'sadi va taraqqiy qiladi, so'ng eskirib o'ladi.

Ma'lumki, XI asrda Ch. Darvin ta'limoti vujudga kelishi bilan bu nazariya qator fanlarga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Albatta, tilshunos olimlar ham bu nazariya ta'sirida tilni tabiiy vosita sifatidagina e'tirof etdilar (Myuller, Shleyxer-nemis tilshunoslari).

Ushbu nazariya tarafdorlari Darvin ta'minotini tilshunolikka burishga intildilar. Fiziologik jihatdan til umurtqa hayvonlariga hos bo'lgan og'iz bo'shlig'ida joylashgan serharakat bir qism. Biroq hayvon tili ta'm bilish, ovqatlanish uchungina kerak bo'lsa, kishilarda til shu hususiyatlardan tashqari, kishilarning jamiyatdagi aloqasini ta'minlaydi, ya'ni kommunikativ ijtimoiy vazifa bajaradi.

Insonning tabiiy biologik xususiyatlari kishilik jamiyatdan tashqari, jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda, masalan, yangi tug'ilgan go'dak hayotining takomili (nafas olishi, ovqat yeyishi, asta-sekin yurib ketishi va hakozolar) tabiat qonunlariga muvofiq halda taraqqiy etaveradi, o'saveradi. Ammo til bunday tabiiy

hodisa emas. Kishining soʻzlashi, fikrlay bilishi uchun jamiyat, kishilik jamiyatining boʻlishi shart, jumladan, hayvonlar (boʻrilar) orasida oʻsgan bola.

Shuni eʼtirof qilish zarurki, kishining tabiiy-biologik xususiyatlari nasldan-naslga oʻtishi mumkin, biroq bolaning tili-soʻzlash xususiyati nasldan-naslga oʻtmaydi, oʻzbeklar orasida yashagan nemis bolasi oʻzbek tilida soʻzlaydi. Uning yuz koʻrinishi tabiiy holati oʻzbeklarnikiga oʻxshamasligi aniq, yoki aksincha boʻlishi mumkin.

Koʻrinadiki, til tabiiy biologik hodisa boʻlmay kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga hazmat qiluvchi sinfga boʻlinmagan ijtimoiy hodisadir. Shunga koʻra til xususida shunday deyish mumkin.

a) til muayyan jamiyatda shakllanadi, taraqqiy etadi va shu jamiyat uchun xizmat qiladi;

b) til tabiiy –biologik emas, ijtimoiy hodisadir;

v) til kishilarning tabiiy –irqiy belgilariga aloqador boʻlmaydi;

g) til jamiyatning maʼlum bir guruhi tomonidan emas, balki butun jamiyat aʼzolari tomonidan yaratilgan ijtimoiy hodisa sanaladi;

Til maʼlum bir tabaqa, guruhlar uchun xizmat qilmaydi, jamiyat barcha aʼzolar uchun xizmat qiladi.

Til orqali ifoda ettirilayotgan maʼlum fikr til va tafakkurning oʻzaro aloqada ekanligini namoyon etadi. Kishi oʻz fikr istagini til orqali yuzaga chiqaradi, biroq fikr yurita olmaydigan kishi soʻzlay ham olmaydi (albatta daraja, saviya boshqa masala).

Tafakkur bilan tilning munosabati oʻziga xos jarayondir. Har qanday fikr muayyan moddiy qolipga tushmaguncha, yaʼni soʻz, gap orqali ifoda etilmaguncha yuzaga chiqmaydi. Til fikrning voqealanishi, namoyon qilinishidir. Fikr soʻzlar shakllanadi, tilda oʻzining ifodasini topadi. Shunday qilib, soʻz fikrni mujassamlashtiradi, moddiy shaklga solib, uni yuzaga chiqaradi. Fikr mazmuni esa soʻzlar vositasi bilan tarkibiy qismlarga ajraladi. Ongimizda paydo boʻladigan fikrning mohiyatini mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat soʻzlar vositasi bilangina voqealanadi.

Til faqat kishilarga xos boʻlgani kabi tafakkur ham faqat kishilarga xos boʻladi. Til va tafakkur bir-ibiri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, til tafakkursiz, tafakkur tilsiz mavjud boʻla olmaydi. Biroq til va tafakkur boshqa-boshqa hodisalar boʻlib, tafakkur tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni, fikrni muayyan bir shaklga soladi va soʻzlar orqali gaplar vositasida ifodalanishi bilan farqlanadi.

Sintaksis yunoncha “Sintaksis” soʻzidan olingan boʻlib, “tuzish” degan maʼnoni anglatadi. Sintaksis grammatikaning bir boʻlimi boʻlib, bunda soʻzlarning va gaplarning oʻzaro aloqasini, soʻz birikmalari va gaplarning turlarini, birikish usullarini oʻrganadi. Bu jihatdan sintaksis morfologiyadan farqlanadi. Chunki morfologiya soʻzlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishi kabilarni tekshiradi. Sintaksis esa, ana shu formalarning dinamikasini, ularning funksiyasini maʼlum bir fikrni ifodalashdagi rolini oʻrganadi.

Morfologiya va sintaksis bir-birini toʻldiruvchi, oʻzaro munosabatda boʻlgan sohalardir. Gap-turlari – darak, soʻroq, buyruq, undov gaplarning bir-

biridan farqlanishi, asosan kesimlarning qanday soʻz turkumi orqali ifodalanishiga bogʻliq.

Masalan:

1. Nosir bu ertakni buvisidan eshitdi. -Darak gap.

2. Ekskursiyaga kim qatnashmadi? – Soʻroq gap.

Soʻz birikmalari ham boshqaruvchi, yaʼni bosh soʻzning qanday soʻz turkumi ekanligiga qarab, tasnif qilinadi. Sintaksisda esa, ergash gaplar bosh gap tarkibidagi ayrim belgi xususiyatlariga koʻra ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi ergash gaplarga ajratiladi.

Demak, har bir sintaksisning kategoriyasi morfologiya bilan bogʻlangan holda tahlil qilinadi va belgilanadi. Baʼzan esa bu ikki sohani, yaʼni morfologiya va sintaksisni bir-biridan ajratish ham qiyin boʻladi.

Masalan: Kelishiklar morfologiyada ham, sintaksisda ham oʻrganiladi. Ammo morfologiyada, asosan kelishik yolgʻiz formal jihatdan, yaʼni kelishikning formasi, qanday soʻz turkumiga qoʻshilishi tekshirilsa, sintaksisda esa kelishikning vazifasi, qanday soʻzlar bilan, boʻlaklar bilan bogʻlanishi oʻrganiladi. Ammo kelishikning vazifasi ham hisobga olinadi.

Shuningdek, sintaksis kategoriyalari morfologik kategoriyalarga teng emas.

Masalan: Bizning oila - toʻq oila.

Demak, sintaksisda soʻzlar kengroq aspektida, ularning maʼnosi va vazifasi hisobga olingan holda tekshiriladi.

2. Gap va uning asosiy belgilari.

Kishilar bir-birlari bilan fikr almashadilar. Bu fikr almashuv gap orqali boʻladi. Gap uning grammatik xususiyatlari, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish yoʻllari sintaksisda oʻrganiladi. Sintaksisning asosiy oʻrganish obʼyektidir.

Voqelikni va unga boʻlgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan intonatsion hamda mazmun jihatdan nisbatan mustaqillikka ega boʻlgan soʻzlar bogʻlanmasi yoki yakka soʻz gap deyiladi. Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligidir. Gapning asosiy belgilari quyidagilar:

1. Fikr turli gap tiplari orqali ifodalanadi, fikr sodda yoki qoʻshma gaplar orqali, darak, soʻroq, undov gaplar orqali, ikki sostavli yoki bir sostavli gaplar orqali, toʻliq yoki toʻliqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Bu hol fikrning xarakteriga, maʼlum maqsad yoki niyatga qarab belgilanadi.

2. Gapning asosiy belgilari, uning soʻz yoki soʻz birikmalaridan farqi nimada? Gapning asosiy belgilari, unda nisbiy fikr tugalligi predikativlikning mavjud boʻlishi, grammatik jihatdan maʼlum qonun va qoidalar asosida shakllanishi, tashqi tomondan oʻziga xos intonatsiyaga ega boʻlishi shart. Gapning bu xususiyatlari koʻpchilik tillar uchun umumiydir. Ammo bu belgilarning turli tillarda nomoyon boʻlishi va ularning ahamiyati, oʻrni turlichadir har bir gapda maʼlum maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi. Aks holda u soʻz birikmasi boʻlib qoladi.

Masalan: Nodira oʻqidi.

Nodiraning daftari

Bu misolda birinchisi gap, ikkinchisi esa soʻz birikmasidir. Avvalgisida maʼlum fikr anglashilapti. Keyingisida esa tushuncha aks etgan.

Bu maqsad yoki his-hayajon sodda yoki qo'shma gap shaklida ifodalanishi ham mumkin.

Qo'shma gaplarda komponentlar birikkandagina ma'lum maqsad anglashiladi.

Masalan: Ko'z qo'rqqoq-qo'l botir – gapida qo'rqqoqligi bilan qo'lning botirligi haqidagi fikrlar ifodalangan. Shuning uchun ham qo'shma gapga ikkita sodda gapning mexanik tarzda birikuvi holda emas, balki gap strukturasinig o'ziga xos alohida bir tipi sifatida qaraladi. Ammo qo'shma gaplarda fikr, maqsad bitta bo'lsa ham, hukm birdan ortiq bo'ladi. (yuqoridagi keltirilgan misolda ikkita hukm ifodalangan, ko'zning qo'roqligi, qo'lning botirligi) o'zbek adabiy tilida birdan ortiq hukm bir sodda gap orqali ifodalanishi ham mumkin.

Masalan: Kitob olganiga xursand bo'ladi. Har bir brigada ekishga tayyor bo'lib turishi zarurligini qayta-qayta uqtirdi.

Bu sodda gaplarning har birida ikki xul ifodalangan.

Gapning asosiy belgilaridan yana biri predikativlikdir. Predikativlik gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir. Gap orqali so'zlovlovchi biror voqea-hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda ro'y berishi, realligi yoki norealligi, xohish yoki norozilik kabi munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosabat, ya'ni prediktivlik, modallik va zamon, shaxs-son kategoriyalari orqali ro'yobga chiqadi, bu kategoriyalar turli morfologik, sintaktik, intonatsiya va boshqa yo'llar bilan ifodalanadi.

Gapning o'ziga xos belgilaridan yana biri unda maxsus intonatsiyaning bo'lishidir.

Har bir gap intonatsion jihatdan ham shakillangan bo'ladi gapning boshlanishi va tugallanishi uning intonatsiyasidan sezilib turadi. Gap oxirida intonatsiya ham tugallanadi.

O'zbek tilida gapning asosiy belgisi:

1. Gapda ma'lum bir fikr, maqsadning tugalligi.
2. Predikativlik.
3. Grammatik struktura.
4. Intonatsion tugallik.

3. Gap grammatik strukturasi ko'ra o'ziga xos bir konstruksiyani tashkil etadi. Ikki sostavli gaplar konstruksiyasining asosini bosh bo'laklar – ega va kesim tashkil etadi. Ikki sostavli gapga, masalan: Ishonchsiz hamroh, zaharli ilondan xavfli bo'ladi. Ega gapda u to'g'rida gap borgan, bosh kelishikdagi mutloq bo'lakdir.

Ammo har qanday bosh kelishik formasidagi so'z ega bo'la olmaydi. Bosh kelishikdagi so'z kesim, ikkinchi darajali bo'lak, undalma bo'lib kelishi ham mumkin. Ega uchun avvalo, uning ma'nosi va gapdagi vazifasi asosdir.

Kesim ega haqidagi gapning hukm, tasdiq va inkoridir. Kesim shaklan turlicha bo'ladi. Masalan: Sovg'a menga.

Odatda, ega bilan kesim bir-biri bilan shaxs va sonda moslashadi.

Masalan: Karim sizni so'radi. O'quvchilar ekskursiyaga chiqdilar. Ammo bu xususiyat o'zbek tili uchun asos bo'la olmaydi. Chunki ega bilan kesim sonda moslashmasligi ham mumkin.

Masalan: Magazinlar ochildi. Qushlar sayraydi kabi...

5. Gaplar strukturasi ko'ra uch xil bo'ladi:

a) sodda;

b) murakkab;

v) qo'shma gaplar.

Sodda gap ma'lum bir fikr, maqsadni ifodalovchi, bir sintaktik strukturadan iborat bo'lgan gap hisoblanadi. Sodda gap tuzilishiga ko'ra yig'iq va yoyiq bo'lishi mumkin. Bosh bo'laklardan tashkil topgan gaplar sodda gap, bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan yoyiq gap sanaladi.

Murakkab gap tarkibida asosiy gap bo'laklaridan tashqari ajratilgan bo'laklar (undalmalar), kirish bo'lak va kirish birikmalar ham qatnashadi.